

---

## SAYYOR QABUL – XALQ BILAN OCHIQ MULOQOT



Bugun 1-sektor hududidagi Qiyqi mahalla fuqarolar yig'inida Qo'shtepa tumani hokimi I.Novikovning navbatdagi sayyor qabuli o'tkazildi.

Ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan sayyor qabulda tuman rahbari tomonidan aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ularni qiynab kelayotgan muammolar aniqlanib, ijobiy hal etish choralari ko'rildi.

Sayyor qabulda tuman hokimining o'rinbosarlari, tegishli idora va tashkilotlarning rahbarlari ishtirok etishdi.



Qabul davomida 9 nafar fuqarolar turli masalalar bilan murojaat qildilar. Fuqarolar tomonidan ko'tarilgan muammo va takliflarni o'rganib chiqib, ijobiy hal etish yuzasidan mas'ul korxonalar va tashkilot rahbarlariga topshiriqlar berildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-04-01 22:46:46